

## **O'ZBEK XALQ CHOLG'U ORKESTRI VA ULARNING TUZILISHI**

**Yusupjonova Dilfuzaxon Olimjon qizi**

*Farg'ona davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti "Vokal va cholg'u ijrochiligi"  
kafedrası 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada o'zbek xalq cholg'ulari orkestri, undagi cholg'u turlari va tuzilishlari haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *orkestr, xalq cholg'ulari, diapazon, transpozitsiya, tonallik, oiladosh cholg'ular.*

Musiqqa insonga tinchlik, xotirjamlik baxsh etadi. Insonga musiqqa hayotidagi muammolarni unutishga yordam beradi va kayfiyatni ko'tarishning eng yaxshi usuli. Insonning qalbida go'zallik tuyg'usini taraqqiy ettirmay turib, ma'naviy barkamol inson haqida gapirib bo'lmaydi. Shunday ekan, qudratli kuchga ega bo'lgan musiqqa, o'z jozibasi bilan inson qalbini qamrab oladi, uni go'zallikga yetaklaydi. Shu boisdan ham musiqani xalqning, millatning qalbi deb, bejiz aytilmaydi.

Orkestr (qadimgi yunoncha orchestra-yunon teatrida sahnaning old maydonchasi) musiqqa asarini birgalikda ijro etuvchi cholg'u asboblari yig'indisi va shu asboblarni chaluvchi musiqaschilar kollektivi. Orkestr kamer ansambldan dirijyor tomonidan boshqarilishi va ba'zi partiyalar yakka sozlarda emas, balki sozandalar guruhi tomonidan ijro etilishi bilan farqlanadi. Sozlarning turlari va tuzilishiga ko'ra, orkestrlar simfonik orkestr, xalq cholg'u asboblari orkestri, kamer orkestr, puflamalar orkestri, torli cholg'ular orkestri, estrada orkestri, jaz orkestri va boshqa turlarga bo'linadi. Hozirgi kunda O'zbekistonda orkestrlarning barcha turlari mavjud.<sup>1</sup>

Bugungi kunda bizga ma'lum bo'lgan o'zbek xalq cholg'ulari orkestri XX asrning birinchi yarmida paydo bo'lgan va bir necha o'n yillar davomida shakllanish, rivojlanish, mukammallashish jarayonlarini o'z boshidan kechirgan.

Tajriba sifatida kiritilgan talaygina cholg'ular, ya'ni hozirgi g'ijjagimizning kattalashgan ko'rinishlaridagi g'ijjak-bas, g'ijjak-kontrabas, temperatsiyaga solishning hech ilojisi bo'lmagan. An'anaviy qadimiy cholg'umuz-surnay amaliyotdan o'tmasdan, o'z-o'zidan o'sha davrda tuzilgan musiqiy badiiy jamoalarimizning asosiy tarkibidan chiqib ketgan. Lekin an'anaviy surnayimizni epizodik cholg'u sifatida (karnay, sibizg'a, changqobuz kabi) kompozitorlar partituraga kiritishgan, bundan keyin ham asarlarning maxsus, folklorga yaqin bo'laklarida kiritishlari mumkin. Sanab o'tilgan cholg'ularning o'rniga-g'ijjak qobuz bas, g'ijjak qobuz kontrabas yangitdan yaratilib amaliyotdan o'tdi, surnay o'rniga

---

<sup>1</sup> O'zME. Birinchi jild. Toshkent-2000.

Yevropa cholg'usi hisoblanmish-goboy yoki uning ham o'rniga dirijyorlar bayan-akkordeon (tembr jihatidan yaqin registrlari borligi uchun) kabilarni o'zbek xalq cholg'ulari orkestri tarkibiga kiritib kelmoqdalar.<sup>2</sup>

O'zbek xalq cholg'ulari orkestri oiladosh cholg'ulardan tuzilgan 5 ta guruhdan tashkil topgan bo'lib, partiturada ular quyidagi ketma-ketlikda yuqoridan pastga qarab joylashadi:

1. Puflama cholg'ular guruhi;
2. Torli-urma cholg'ular (changlar) guruhi;
3. Torli-chertma (mizrobli) cholg'ular guruhi;
4. Urma-zarbli cholg'ular guruhi;
5. Torli-kamonli cholg'ular guruhi.

-puflama cholg'ular guruhiga kichik nay (pikkalo), nay (katta), surnay va qo'shnay kiradi;

-torli urma cholg'u guruhiga chang kiradi;

-torli-chertma (mizrobli) guruhiga rubob prima, qashqar rubobi, afg'on rubobi, tanbur, qonun, kontrabas, dutor, dutor bas asboblari kiradi;

-urma zarbli cholg'ular guruhiga doira, nog'ora, buben, uchburchak, litavra, ksilafon, qayroqtosh, tarelka kiradi;

-torli-kamonli guruhga g'ijjak (I-II), g'ijjak alt, g'ijjak qobuz bas, g'ijjak qobuz kontrabaslar kiradi.

**Puflama cholg'ular.** O'z nomi bilan, demak, faqat puflasa sado taratadigan cholg'ular bunday nomlanadi. Cholg'uning g'ovak ustunida ma'lum miqdorda dam (havo) yig'ilsa, bosim ostida barmoqlar harakati yoki lab mahoratidan turli balandlikda yoqimli tovushlar tartibli yangraydi. Bu toifa cholg'ularni ayrimlar – damli cholg'ular deb ham ishlataverishadi;

**Torli cholg'ular.** O'z nomi bilan ma'lum bir ko'rinishdagi, tovush chiqarish uchun bir nechtdan yo'g'on yoki ingichka torlar tortilgan cholg'ular nazarda tutiladi. Torlari ichakdan yoki misdan bo'lishi mumkin. Ulardan sado taratishning asosiy usullari ham turlicha, masalan, barcha torli cholg'ularga nisbatan (bir-biridan farqlash uchun) mana bunday iboralar qo'llaniladi.

Torli-urma demak, torlariga urib chalinadi, torli-chertma (demak, torlarini chertib yoki tirnab chalinadi).

**Torli-kamonli.** Demak, torlari ustida kamon tortib chalinadi.

**Cholg'ularning yozilish diapazoni.** Har qanday cholg'u o'z tovushlarining sadolanishiga qarab aniq diapazonga ega bo'ladi. Butun dunyo musiqachilari qabul qilgan 5 ta nota chizig'ida sozandalar notaga qarab chalishlarida qulaylik zarurligi uchun musiqiy kalitlar tanlangan va o'sha kalitlarda (eng pastki tovushdan

<sup>2</sup> Sh.Rahimov, Sh.Ashurov. "Cholg'ushunoslik". Toshkent-2010.

eng baland tovushgacha) notalar yordamida kuylar yoziladi. Mana shu nota yozuvlari cholg'ularning yozilish diapazoni deyiladi.

**Cholg'ularning eshitalish diapazoni.** Aksariyat cholg'ularda musiqa notasi qanday yozilgan bo'lsa, o'shanday eshitaladi. Ayrim cholg'ularda esa notalar yozilganidan ko'ra boshqacha eshitalishi mumkin-past yoki baland. Bunday cholg'ular musiqachilarning tilida "transpozitsiya qilinadigan cholg'ular" deyiladi. Yevropa cholg'ulari turli intervallarga (sekunda, tersiya, kvarta, kvinta, seksta, kabi) transpozitsiya qilinishi mumkin. Bizning milliy cholg'ularimiz esa asosan yozilishiga qaraganda 1 oktava yuqori yoki 1 oktava past eshitaladi. Cholg'ularning transpozitsiyalanishi. "Cholg'ularning eshitalish diapazoni" iborasi boshqacha qilib aytganda, "cholg'ularning transpozitsiyalanishi" ham deb nomlanadi. Demak, notada yozilish biri, eshitalishi esa boshqa bo'ladi.<sup>3</sup>

Orkestrda ijrochilik mahorati har xil darajali sozandalar bo'lganligi sababli uchta belgigacha bo'lgan tonlik kuylarini chaldirgan ma'qul. Albatta tabiiy tovush qatoriga ega bo'lgan puflama guruhlarni nazarda tutish kerak. Nay, qo'shnay, surnay asboblari chalishga qiynalmaydigan tonliklardagi asarlar bo'lsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Puflama cholg'ular uchun qulay registrda (yuqori va registrning ikkinchi yarmi) yozilgan kuylar yengil va jarangdor sadolanadi. Qo'shnay diapazoni kichkina bo'lganligi sababli unga o'rta registrdagi kuy qismlari berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Qo'shnay texnik imkoniyati past asbob, lekin orkestrda o'z o'rnini bor. U o'ziga xos mungli, ifodali sadolanadi. Agar puflama guruhlarning tovush qatorini nazarda tutib asar tonligini o'zgartirsak, asar xarakteriga salbiy ta'sir etishi mumkin. Orkestrdagi boshqa guruhlarga tonlik tanlash murakkablik tug'dirmaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent-2000.
2. Sh.Rahimov, Sh.Ashurov. "Cholg'ushunoslik". Toshkent-2010.
3. Nasritdinova, M., Nigora, M., & Murodova, D. (2022, February). UZBEK FOLK ART AND ITS PLACE IN PUBLIC LIFE. In *Archive of Conferences* (pp. 44-48).
4. Murodova, D. (2021). Scientific And Theoretical Aspects of Musical Thinking. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 1(1), 196-199.
5. Murodova, D. (2022). ЯНГИ ТАРАҚҚИЁТ БОСҚИЧИДА ЁШЛАРДА БАДИИЙ-ЭСТЕТИК БИЛИМ ВА КЎНИКМАЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЖАРАЁНИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ЗАРУРИЯТИ. *Science and innovation*, 1(B6), 702-707.
6. Murodova, D. R. Q. (2023). ВО 'LAJAK MUSIQA TA'LIMI O 'QITUVCHILARINING BADIY-ESTETIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

<sup>3</sup> Sh.Rahimov, Sh.Ashurov. "Cholg'ushunoslik". Toshkent-2010.

MAZMUNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(2), 644-649.

7. Murodova, D. (2021). THE CONCEPT OF MUSICAL THINKING AND ITS STAGES OF DEVELOPMENT. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(05), 245-250.

8. Durdona, M. (2021, May). ABOUT DUTOR AND HIS PERFORMANCE. In *Archive of Conferences* (Vol. 25, No. 1, pp. 29-31).

9. Nasretdinova, M., Toshaliyev, D., & Murodova, D. R. Q. (2022). AN'ANAVIY IJROCHILIK SAN'ATINING HOZIRGI DAVR MUAMMOLARI. *Scientific progress*, 3(2), 846-850.

10. Муродова, Д. (2023). БЎЛАЖАК МУСИҚА ТАЪЛИМИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ БАДИИЙ-ЭСТЕТИК КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИННОВАЦИОН ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯСИ. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Актуальные проблемы гуманитарных и социальных наук., 3(S/4), 434-438.

11. Муродова, Д. (2023). FANLARARO HAMKORLIKDA BO 'LAJAK MUSIQA TA'LIMI O 'QITUVCHILARINING BADIY-ESTETIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI. *Наука и инновация*, 1(7), 137-140.

12. Муродова, Д. (2023). BO'LAJAK MUSIQA TA'LIMI O'QITUVCHILARIDA BADIY-ESTETIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING TAJRIBA-SINOV ISHLARI NATIJALARI VA UNI SAMARADORLIK DARAJASI. *Наука и инновация*, 1(7), 134-136.

13. Муродова, Д. (2023). ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ИНТЕГРАЦИИ. *Наука и инновации*, 2(B5), 426-430.

14. Хожимаматов А. ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА МИЛЛИЙ МУСИҚИЙ МЕРОСГА МУНОСАБАТНИ ЎЗГАРИБ БОРИШ ТЕНДЕНЦИЯСИНИНГ НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ. "JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN". *JURNALI VOLUME 1, ISSUE 2, 2023. JUNE 249-253 bet.*

15. Achildiyeva, M. (2023). PATNISAKI ASHULANING IJTIMOYIY JARAYONDA FALSAFIY TARAQQIYOTI XUSUSIDA. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(2), 254-266.

16. Achildiyeva, M. (2023). QADIMGI DAVR CHOLG 'U SOZLARI VA ULARNING KELIB CHIQISHI. *DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY"*, 14(1).

17. Achildiyeva, M., & Mohinur, M. (2023). O 'ZBEK SAN'ATINING ZABARDAST HOFIZI JO 'RAXON SULTONOV. *DENMARK" THEORETICAL*

*AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY", 14(1).*

18. Achildiyeva, M., & Sabina, B. (2023). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA MUSIQIY ATAMALAR. *Gospodarka i Innowacje.*, 34, 494-498.

19. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. (2023). O 'ZBEK MILLIY BALETLARINING PSIXO-ESTETIK AHAMIYATI. *Gospodarka i Innowacje.*, 34, 485-489.

20. Ikromova, F. Y. Q., & Achildiyeva, M. (2023). XOR SAN'ATINING KELIB CHIQISH TARIXI, UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O 'RNI VA AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 320-325.

21. Achildiyeva, M., & Ikromova, F. (2022). THE USE OF MAQOM METHODS IN THE OPERA " LEYLI AND MAJNUN" BY REINGOLD GLIER AND TOLIBJON SODIKOV. *Science and Innovation*, 1(4), 23-28.

22. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). PROBLEMS OF PERFORMING MUSICAL STAGE WORKS (ON THE EXAMPLE OF THE OEUVRE OF UZBEK COMPOSERS). *Science and Innovation*, 1(4), 29-33.

23. Khojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Look at the Polyphony and Theoretical Heritage of Si Taneev. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 8, 87-89.

24. Hojimatov, A. (2022). CHANG CHOLG 'USI TARIXIGA BIR NAZAR VA UNING ORNAMENTAL BEZAKLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 265-275.

25. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). МУСИҚИЙ САҲНАВИЙ АСАРЛАРНИНГ ИЖРОЧИЛИК МУАММОЛАРИ (ЎЗБЕКИСТОН КОМПОЗИТОРЛАРИ ИЖОДИ МИСОЛИДА). *Science and innovation*, 1(C4), 29-33.

26. Achildiyeva, M., Khojimamatov, A., Dilafruz, Y., & Ikromova, F. (2021). Uyghur Folk Singing Genre. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).

27. Achildiyeva, M. (2022). SHASHMAQOM MUSHKILOT BO'LIMINING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 344-352.

28. Achildiyeva, M., & Ikromova, F. THE SCIENCE OF MUSIC IN THE FORMATION OF HUMAN

VALUES IN YOUNG PEOPLE'S LIFE. *INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH*, Vol 10 Issue02, Feb 2021 ISSN 2456-5083

29. Achildiyeva, M., Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Shashmaqom saboqlari: " Navo" maqomi xususida. *INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH*, 11(01), 55-58.

**30.** Achildieva M, Butabayeva N, Nosirova M. A GLANCE AT THE SCIENTIFIC AND CREATIVE HERITAGE OF BORBAD MARVAZI *European Journal of Agricultural and Rural Education (EJARE)* Vol. 4 No. 05, May 2023 ISSN: 2660-5643 1-6

**31.** Achildiyeva M. The Role of Music in Forming the Artistic-Aesthetic Taste of Youth *BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT* ISSN: 2835-3579 Volume:2 Issue:7|2023 173-179

**32.** Xojimamatov A Evolution of Philosophical Views on Music and National Musical Heritage *BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT* ISSN: 2835-3579 Volume:2 Issue:7|2023 162-166

**33.** Achildiyeva M. Atkiyoeva R. O'ZBEK VA JAHON SAHNALARIDA KATTA ASHULANING O'RNI VA AHAMIYATI *Journal of Engineering, Mechanics and Modern Architecture* Vol. 2, No. 7, 2023 ISSN:2181-4384 11-14

**34.** Xojimamatov A. Atkiyoeva R. "VODIY BULBULI" TAVAKKAL QODIROVNING IJODIY MEROSI BUGUNGI KUN NIGOHIDA *Journal of Innovation, Creativity and Art* Vol. 2, No. 7, 2023 ISSN:2181-4287 4-7

**35.** Mamaziyayev X. Atkiyoeva R. BOTIR ZOKIROV -MILLIY ESTRADANING MUSTAHKAM USTUNI *Journal of Innovation, Creativity and Art* Vol. 2, No. 7, 2023 ISSN:2181-4287 8-12

